



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

XORAZM VOHASI QURUQLIK MOLLYUSKALARINING TAKSONOMIK TARKIBI

I. R. Avazmetova,
b.f.f.d.(PhD), dotsent, Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

G. Q. Nurmetova,
magistr, Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Xorazm vohasida tarqalgan quruqlik mollyuskalarining tur tarkibi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot hududida quruqlik mollyuskalarining 11 oila, 13 avlodga mansub 21 turi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Quruqlik mollyuska, malokafauna, tur, biotop, taksonomik tavsif.

Kirish

Antropogen ta'sir ostida kuchayayotgan tabiiy ekotizimlarning umumiy tanazzuli va fragmentatsiyasi, hayvonlar turlarining tabiiy yashash joylari qisqarishi va sezilarli darajada transformatsiyasi biologik xilma-xillik uchun asosiy xavf hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, so'nggi yillarda butun dunyoda biologik xilma-xillikni saqlash, ularni muhofaza qilish va hayvonot dunyosi bioresurslaridan oqilona foydalanishni rivojlantirish sohasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, respublikamizda ham bu borada endemik turlar son jihatdan oldinda turadigan mintaqalar faunasi xilma-xilligini ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usllari yordamida aniqlash, avtohton turlar markazlarining shakllanishini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday hududlardan biri sifatida geografik o'rni, o'ziga xos iqlim sharoiti, malakofaunasining xilma-xilligi, avtohton turlarning shakllanishiga imkon yaratganligi bilan respublikamizning boshqa hududlaridan keskin ajralib turuvchi Xorazm vohasi quruqlik mollyuskalarining zamonaviy taksonomik holatini baholash muhim ilmiy-amaliy



ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotlarimizni Xorazm vohasi hududidagi quruqlik mollyuskalarini o'rganishlar ustida olib bordik.

Tadqiqot materiallari va metodlari: Tadqiqot materiallari 2020-2025-yillarda Xorazm vohasining deyarli barcha tumanlaridan yig'ilgan mollyuska namunalari asosiy material bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot metodikasi: Tadqiqot hududida chig'anoqli mollyuskalarni yig'ish Shileyko.A.A [2], shilliqqurtlarni yig'ish esa I.M. Lixarev va A.Y.Viktor [1], metodikasi bo'yicha amalga oshirildi.

Natijalar tahlili: Xorazm vohasining geografik o'rni, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, yer usti tuzilishining tekislikdan iborat bo'lishi va cho'l zonasida joylashganligi, hududning hamma tomondan ochiqqligi unda katta tabiiy to'siqlarining yo'qligi shimoliy, shimoliy-sharqiy va shimoliy-g'arbiy havo massalarining bemalol kirib kelishiga sharoit yaratadi. Ikkinchidan, hozirda vohaning asosiy qismi insonlarning xo'jalik faoliyati ta'siri natijasida butkul o'zgarib, antropogen landshaftga aylangan. Qaysiki bularning barchasi voha o'simlik va hayvonot dunyosinig shakillanishida ham o'z aksini topadi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra Xorazm vohasi hududida quruqlik mollyuskalarining 11 oila, 13 avlodga mansub 21 turi tarqalganligi aniqlandi (1-jadval).

(1-jadval) Xorazm vohasi quruqlik mollyuskalarining taksonomik tarkibi

Mollyuskalar oilalari	Taksonomik birliklar soni			
	Kichik oilalar soni	Avlodlar soni	Tur	Umumiy songa nisbatan % hisobida
Cochlicopidae	-	1	4	19,04
Valloniidae	-	1	3	14,28
Pupillidae	-	-	1	4,76
Vertiginidae	1	1	1	4,76
Hygromiidae	1	1	1	4,76



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

Helicidae	1	1	1	4,76
Vitrinidae	-	1	1	4,76
Gastrodontidae	-	1	1	4,76
Agriolimacidae	-	1	3	14,28
Parmacellidae	-	1	1	4,76
Helicarionidae	-	1	1	4,76
Succinidae	-	3	3	14,28
Jami:11	3	13	21	100%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tadqiqot hududida **Cochlicopidae (19,04%)** oila vakillari nisbatan keng tarqalgan bo'lib, ular dominant hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tadqiqot hududida quruqlik mollyuskalarining 11 oila, 13 avlodga mansub 21 turni tashkil qiladi. Ulardan 3 turi (*Cochlicopa izzatullaevi*, *C. urgenchika*, *Vallonia asiatica*) O'zbekiston faunasi uchun yangi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лихарев И.М., Виктор А.Й. Слизни фауны СССР и сопредельных стран (Gastropoda Terrestria Nuda) Фауна СССР. Моллюски. - Л.: Наука, 1980. Т. 3. Вып. 5. - № 122, -437 с.
2. Шилейко А.А. Наземные моллюски надсемейства Helicoidea Фауна СССР. Моллюски. - Л.: Наука Ленинградское отделение, 1978 а. Т.3. Вып. 6 . - 384 с.